




## Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-mart)

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha

**sanoat ishlab chiqarish hajmi,  
mlrd. so'm, fizik hajm indeksi, % da**



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-mart oyida viloyat sanoat korxonalarini tomonidan 2 455,9 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020 - yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 117,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,06 % ni tashkil etdi.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida 17,6 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida - 14,3 % ga o'sishning kuzatilishi bo'lsa, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 18,8 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 22,4 % ga kamayishi kuzatildi.

\***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** – *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,3 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,011 % ini tashkil etdi. 2021 - yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 334,4 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,055 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 41,1 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 28,5 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 16,9 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 41,1 %.**




**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 28,5%.**



**Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -16,9%.**




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Joriy yilning yanvar-mart oylarida elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 101,0 mldr. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,111 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 114,3 % ni tashkil qildi.

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,2 mldr. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,823 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash (65,8 %), chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizasiya qilish (33,7 %) tashkil etdi.






**Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)**

Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar-mart	2020 - yil yanvar-mart	Farqi +/-
<b>Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:</b>	46,1	68,8	-22,7
<b>Issiqlik energiyasi – ming Gkal:</b>	47,1	58,7	-11,6
<b>Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) – dona:</b>	12051,0	12970,0	-919
<b>Maxsus yengil avtomobillar – dona:</b>	2564,0	1470,0	1094
<b>Aroq – ming litr:</b>	27,2	104,8	-77,6
<b>Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:</b>	3,0	4,2	-1,2
<b>Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:</b>	137,0	94,0	43
<b>Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna:</b>	22180,7	23626,8	-1446,1
<b>Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna:</b>	5905,9	2043,0	3862,9
<b>Xo‘jalik sovuni – tonna:</b>	1061,3	1004,7	56,6
<b>Paxta tolasi – tonna:</b>	21589,5	13013,6	8575,9
<b>Paxta chigit – tonna:</b>	44287,3	20779,8	23507,5

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 22,7 mln. kVts ga, issiqlik energiyasi 11,6 ming Gkal. ga, yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) 919,0 donaga, aroq 77,6 ming litrga, uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari 1,2 ming litrga, yumshoq bug‘doy va spelta uni ishlab chiqarish 1446,1 tonnaga kamaygan.

Maxsus yengil avtomobillar, tozalangan o‘simgilik yog‘i, tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari, xo‘jalik sovuni, paxta tolasi, paxta chigit iishlab chiqarish sezilarli darajada oshgan.

### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



2020 - yil yanvar-mart oylarida o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 4,1 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 - yil yanvar-mart oylarida bu ko‘rsatkich 3,4 % ga, o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning 48,5 % dan 43,2 % ga kamaygan bo‘lsa, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,01 % dan 0,04 % ga, quyi texnologiyali ishlab chiqarish 41,0 % dan 48,5 % o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 1,0 mlrd. so‘mlik (2020 - yil yanvar-mart oylarida 0,2 mlrd. so‘m), o‘rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 1 060,3 mlrd. so‘mlik (937,9 mlrd. so‘m), o‘rta-quyi texnologiyali tarmoqda 83,1 mlrd. so‘mlik (80,0 mlrd. so‘m), quyi texnologiyali tarmoqda 1 190,0 mlrd. so‘mlik (791,8 mlrd. so‘m) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



## Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>2021 - yil yanvar-mart mlrd. so 'm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2455,9</b>	<b>117,0</b>
Urganch shahri	449,7	114,5
Xiva shahri	35,2	105,2
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bog'ot tumani	70,9	93,6
Gurlan tumani	128,3	106,7
Qo'shko'pir tumani	125,1	155,4
Urganch tumani	88,2	107,7
Hazorasp tumani	106,1	120,8
Tuproqqa'l'a tumani*	1042,2	102,5
Xonqa tumani	125,5	105,9
Xiva tumani	57,3	176,7
Shovot tumani	70,5	84,0
Yangiariq tumani	70,8	86,2
Yangibozor tumani	86,1	115,8


Yuqoridagi jadvalning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Tuproqqa'l'a tumani, Urganch shahri, Gurlan, Yangibozor, Xiva, Hazorasp va Xonqa tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.

**\*Tuproqqa'l'a tumani – 2020 - yil aprel oyida Hazorasp tumani hududidan alohida ajralib chiqqan tuman hisoblanadi.**




## Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2020 - yil yanvar-martga nisbatan Xiva tumanida 176,7 %, Qo'shko'pir tumanida 155,4 %, Hazorasp tumanida 120,8 %, Yangibozor tumanida 115,8 %, Urganch shahri 114,5 %, Urganch tumanida 107,7 %, Gurlan tumanida 106,7 %, Xonqa tumanida 105,9 %, Xiva shahri 105,2 %, Tuproqqa'l'a tumanida 102,5 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI  
2020 - YIL YANVAR-MART OYLARIGA NISBATAN, % DA



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Tuproqqa'l'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 42,4 %), Urganch shahri (18,3 %), Gurlan (5,2 %) Xonqa (5,1 %), Qo'shko'pir (5,1 %) hamda Hazorasp (4,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva shahri (1,4 %) va Xiva tumaniga (2,3 %) to'g'ri kelmoqda.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish (mlrd. so'm)

**Iqtisodiy faoliyat turlari:**

**2021 - yil  
yanvar-mart**

**2020 - yil  
yanvar-mart**

**Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari  
bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi**

**2455,9**

**1931,9**

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni  
ishlash**

**0,3**

**0,3**

*ulardan:*

Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa  
faoliyat

0,3

0,3

**Qayta ishslash faoliyati**

**2334,4**

**1809,8**

*undan:*

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

352,7

293,9

Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab  
chiqarish

63,1

53,6

To'qimachilik mahsulotlari ishlab  
chiqarish

700,8

385,3

Kiyim ishlab chiqarish

14,0

5,0

Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab  
chiqarish

1,5

1,4

Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va  
to'qish uchun materilallari, ishlab  
chiqarish

6,9

4,6

Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab  
chiqarish

15,6

14,6

Yozilgan materiallarni nashr qilish va  
aks ettirish

0,4

0,4


<b>Iqtisodiy faoliyat turlari:</b>	<b>2021 - yil yanvar-mart</b>	<b>2020 - yil yanvar-mart</b>
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,1	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	4,3	3,2
Asosiy farmasevtika	0,8	0,02
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	10,4	8,0
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	37,8	33,1
Metallurgiya sanoati	2,5	5,3
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	27,5	28,8
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,1	0,1
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	6,1	5,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	41,4	3,5
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1008,5	925,5
Mebel ishlab chiqarish	6,6	6,6
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	28,6	26,4
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	4,8	4,7
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>101,0</b>	<b>105,2</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>20,2</b>	<b>16,6</b>




## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida, viloyatda 1 351,8 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020 - yilning yanvar- mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 % ni tashkil etdi.

2021 - yil yanvar-mart



2020 - yil yanvar-mart



Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlari

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 350,9 mlrd. so'mni, alkogol ichimlikar 2,3 mlrd. so'mni va 998,6 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2020 - yilning yanvar- mart oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati mos ravishda 112,7 %, 66,4% va 96,8 % ni tashkil qildi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 55,0 % ni (2020 - yil yanvar- mart oylarida 69,7 %) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 69,3 mlrd. so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 822,6 mlrd. so'mni tashkil qilgan va 106,7 mlrd. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021 - yilning yanvar-mart oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2020 - yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1351,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,4</b>
Urganch shahri	203,0	15,0	143,6
Xiva shahri	20,0	1,5	100,1
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	29,2	2,2	103,7
Gurlan tumani	33,4	2,5	82,2
Qo'shko'pir tumani	19,7	1,5	125,8
Urganch tumani	46,1	3,4	125,3
Hazorasp tumani	19,5	1,4	91,2
Tuproqqa'l'a tumani	834,0	61,7	92,6
Xonqa tumani	64,2	4,7	102,2
Xiva tumani	16,9	1,3	104,7
Shovot tumani	28,8	2,1	101,1
Yangiariq tumani	19,2	1,4	109,1
Yangibozor tumani	17,8	1,3	103,4

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib – 61,7 % ni, shuningdek, Urganch shahrinda 15,0 % ni, Xonqa tumanida 4,7 % ni, Urganch tumanida 3,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (100,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Urganch shahrinda

(143,6 %), Qo'shko'pir tumanida (125,8 %), Urganch tumanida (125,3 %), Yangiariq tumanida (109,1 %), Xiva tumanida (104,7 %), Bog'ot tumanida (103,7 %), Yangibozor tumanida (103,4 %), Xonqa tumanida (102,2 %), Shovot tumanida (101,1 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021 - yilning yanvar-mart oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>350,9</b>	<b>100,0</b>	<b>112,7</b>
Urganch shahri	135,0	38,5	142,3
Xiva shahri	11,7	3,4	99,0
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	21,1	6,0	99,6
Gurlan tumani	26,5	7,6	102,2
Qo'shko'pir tumani	10,0	2,8	97,7
Urganch tumani	26,8	7,6	103,0
Hazorasp tumani	11,9	3,4	94,4
Tuproqqa'l'a tumani	6,0	1,7	95,0
Xonqa tumani	46,2	13,2	98,5
Xiva tumani	10,7	3,0	103,2
Shovot tumani	20,0	5,7	98,3
Yangiariq tumani	11,3	3,2	98,8
Yangibozor tumani	13,7	3,9	102,9

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib – 38,5 % , shuningdek, Xonqa tumanida 13,2 %, Urganch tumanida 7,6 %, Gurlan tumanida 7,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Urganch shahrida (142,3 %) va Xiva tumanida (103,2 %) kuzatildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati  
(2021 - yilning yanvar-mart oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-mart nisbatan, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>998,6</b>	<b>100,0</b>	<b>96,8</b>
Urganch shahri	65,6	6,6	152,7
Xiva shahri	8,3	0,8	101,6
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	8,1	0,8	116,3
Gurlan tumani	6,9	0,7	47,1
Qo‘shko‘pir tumani	9,8	1,0	178,3
Urganch tumani	19,3	1,9	179,1
Hazorasp tumani	7,6	0,8	86,8
Tuproqqa'l'a tumani	828,0	82,9	92,6
Xonqa tumani	18,0	1,8	112,9
Xiva tumani	6,2	0,6	107,5
Shovot tumani	8,8	0,9	108,1
Yangiariq tumani	7,9	0,8	128,2
Yangibozor tumani	4,1	0,4	104,9

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri keldi (82,9 %), shuningdek, Urganch shahrida 6,6 % ni, Xonqa tumanida 1,8 % ni va Urganch tumanida 1,9 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (96,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkichni Urganch tumani (179,1 %), Qo'shko'pir tumanı (178,3%), Urganch shahri (152,7 %), Yangiariq tumanı (128,2 %), Bog'ot tumanı (116,3 %), Xonqa tumanı (112,9 %), Shovot tumanı (108,1 %), Xiva tumanı (107,5 %), Yangibozor tumanı (104,9 %) tashkil qildi.

### **Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2020 - yil yanvar- mart oylariga nisbatan, % da)**



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2020 - yil yanvar-mart oylariga nisbatan Urganch shahrida (143,6 %), Qo'shko'pir tumanida (125,8 %), Urganch tumanida (125,3 %), Yangiariq tumanida (109,1 %), Xiva tumanida (104,7 %), Bog'ot tumanida (103,7 %), Yangibozor tumanida (103,4 %), Xonqa tumanida (102,2 %), Shovot tumanida (101,1%), Xiva shahrida (100,1 %) sezilarli darajada o'sgan.

Pasayish Tuproqqa'l'a tumanida (92,6 %), Hazorasp tumanı (91,2 %) va Gurlan tumanida (82,2%) kuzatildi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2021 - yil yanvar-mart oylarida, ming so‘m)**


<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2020 - yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da</b>	<b>Iste’mol mahsulotlari</b>	<b>2020 - yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1295,2</b>	<b>115,3</b>	<b>713,0</b>	<b>99,0</b>
Urganch sh.	3099,0	113,6	1399,0	142,5
Xiva sh.	376,0	103,6	213,5	98,6
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog‘ot	425,3	92,0	175,3	102,0
Gurlan	857,0	105,4	223,0	81,3
Qo‘siko‘pir	719,5	153,5	113,5	124,3
Urganch	437,4	105,7	228,5	122,9
Hazorasp	541,6	153,0	99,7	115,5
Tuproqqał'a	18710,6	0,0	14973,2	0,0
Xonqa	665,3	104,3	340,3	100,7
Xiva	388,3	173,8	114,6	103,0
Shovot	409,9	82,8	167,6	99,7
Yangiariq	603,6	85,0	163,4	107,6
Yangibozor	975,7	114,4	201,5	102,1

Yuqoridagi tahliliy jadvalga asosan, joriy yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 1 295,2 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 115,3 % ga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan Urganch shahrida 2099,5 ming so‘mdan 3099,0 ming so‘mga, Xiva shahrida 301,7 ming so‘mdan 376,0 ming so‘mga, Gurlan

tumanida 675,6 ming so‘mdan 857,0 ming so‘mga, Qo’shko’pir tumanida 107,0 ming so‘mdan 719,5 ming so‘mga, Urganch tumanida 358,6 ming so‘mdan 437,4 ming so‘mga, Hazorasp tumanida 164,1 ming so‘mdan 541,6 ming so‘mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqa'l'a tumanida (18 710,6 ming so‘m), Urganch shahrida (3 099,0 ming so‘m) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1 295,2 ming so‘m) yuqoriligi kuzatilgan.

Aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat bo‘yicha 713,0 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 99,0 % ga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020 - yil yanvar-mart oylarida Urganch shahrida 981,8 ming so‘mdan 2021 - yil yanvar-mart oylarida 1 399,0 ming so‘mga, Qo’shko’pir tumanida 91,3 ming so‘mdan 113,5 ming so‘mga, Urganch tumanida 185,9 ming so‘mdan 228,5 ming so‘mga, Hazorasp tumanida 86,3 ming so‘mdan 99,7 ming so‘mga, Xonqa tumanida 338,1 ming so‘mdan 340,3 ming so‘mga, Yangiariq tumanida 151,9 ming so‘mdan 163,4 ming so‘mga, Yangibozor tumanida 197,4 ming so‘mdan 201,5 ming so‘mga o‘sgani kuzatildi.

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2021 - yil yanvar-mart oylarida, % da)



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Urganch tumani (53,2 %), Bog‘ot tumani (38,2 %), Xonqa tumani (30,3 %), Yangiariq tumani (27,7%) hissasiga to‘g’ri kelgan.

Viloyatda yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 487,4 mld. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,8 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahliliga koʻra, Tuproqqaʼa tumani (3,2 %), Yangibozor tumani (17,9 %), Qoʼshkoʼpir tumanida (18,5 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




### Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 344,1 mld. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 14,0 % ni tashkil etdi.





### Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021- yil 1- aprel holatiga koʼra)

Viloyatda 3 791 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 784 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 20,7 %) Urganch shahriga, 444 tasi (11,7 %) Urganch tumaniga, 349 tasi (9,2 %) Xiva shahriga, 320 tasi (8,4 %) Xiva tumaniga toʻgʻri kelmoqda.



2021 - yil yanvar - mart oylarida viloyatda 320 ta yangi sanoat kichik tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etildi. Ulardan eng ko‘pi, ya’ni 64 tasi Urganch shahrida, 41 tasi Xonqa tumanida, 34 tasi Urganch tumanida, 29 tasi Xiva tumanida, 27 tasi Xiva shahrida tashkil etilgan.





## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi bo'yicha 92 ta loyiha mavjud bo'lib, ular tomonidan joriy yilning yanvar - mart oylarida 38,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur korxonalar tomonidan 730,1 ming AQSH dollarlik mahsulot eksport qilinib, 41 ta yangi ish o'rinnari yaratilgan.

Dastur ijrosining shahar va tumanlar bo'yicha tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Urganch shahrida 20 ta loyihada 3,598 mlrd. so'mlik, Gurlan tumanida 4 ta loyihada 0,069 mlrd.so'mlik, Urganch tumanida 13 ta loyihada 6,455 mlrd.so'mlik, Tuproqqa'l'a tumanida 19 ta loyihada 13,897 mlrd.so'mlik, Xiva tumanida 4 ta loyihada 0,582 mlrd.so'mlik, Shovot tumanida 3 ta loyihada 10,329 mlrd.so'mlik, Yangiariq tumanida 9 ta loyihada 2,739 mlrd.so'mlik va Yangibozor tumanida 4 ta loyihada 0,740 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

	<i>2021 - yil yanvar-mart</i>	<i>2020 - yil yanvar-mart</i>
Loyihalar soni, birlik	92	26
Korxonalar soni, birlik	65	17
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm	38,4	20,6

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Sanoat statistikasi bo'limi  
Aloqa telefoni: (62) 224-64-99